

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUV OMILLARI VA UNING ETNOPSIXOLOGIK JIHATLARI.

Maxmudova Dilorom Maxamatjon qizi

Yangi asr universiteti "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlarda shaxsning va unga nisbatan bo'layotgan munosabatlarda ijtimoiylashuv jarayonining etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlari haqida so'z boradi. Ma'lumki, bola o'ziga Vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor ruhiy xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan, avlod-ajdodidan biologik yo'l bilan faqat irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina me'ros qilib oladi, xolos. Bola tug'ilish davrida odam bo'lishga nomzod. Lekin yakka ajralgan holda u odam bo'la olmaydi. Jamiyatda yashab u shaxsga aylanadi.

Kalit so'zlar: Shaxs, ijtimoiylashuv, jamiyat, individ, makro, mikro muhit, ong, etnik psixologiya, milliy psixologik qiyofa, sotsium, individ, ijtimoiylashuv jarayoni psixologik tavsifi haqida yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические аспекты этнопсихологических особенностей личности в межличностных отношениях и процесса социализации в происходящих по отношению к ней отношениях. Известно, что ребенок не рождается, выбирая себе родину или родителей. Так что он даже не рождается с готовыми психическими характеристиками, присущими его национальности. В данной статье рассматриваются специфические аспекты этнопсихологических особенностей личности в межличностных отношениях и процесса социализации в происходящих по отношению к ней отношениях. Известно, что ребенок не рождается, выбирая себе родину или родителей. Так что он даже не рождается с готовыми психическими характеристиками, присущими его

Ключевое слово: Освещается психологическое описание личности, социализации, общества, индивида, макро-, микросреды, сознания, этнической психологии, Национального психологического образа, социума, индивида, процесса социализации.

Annotation. This article examines the specific aspects of the ethnopsychological characteristics of a person in interpersonal relationships and the process of socialization in the relationships taking place in relation to her. It is known that a child is not born choosing his homeland or parents. So he is not even born with the ready-made mental characteristics inherent in his nationality. This article examines the specific aspects of the ethnopsychological characteristics of a personality in interpersonal relationships and the process of socialization in the relationships taking place in relation to it. It is known that a child is not born choosing his homeland or parents. So he's not even born with the mental characteristics inherent in him.

Keywords: The psychological description of personality, socialization, society, individual, macro-, microenvironment, consciousness, ethnic psychology, National psychological image, society, individual, and the process of socialization is highlighted.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatishiga ega bo'lsa ham, lekin hayotda u faqat o'z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan sotsial muhit va o'zi mansub bo'lgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib

boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan sotsial muhitdan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy ilm-fanda inson shaxsining jamiyat hayotiga moslashishi va individuallashishi(o'ziga xoslikning ifodalanishi) kabi jarayonlarini o'zaro bog'lab turadi. Shaxsning muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi va o'zini alohida olingan shaxs sifatida har bir jamiyatda ijtimoiy guruhlar uchun turli-tuman ijtimoiy normalar va ta'qiqlashlardan iborat chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi bolalar, o'smirlar, o'spirinlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida voyaga yetishiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p sonli shart-sharoitlar zahirida yuzaga keladi. Ijtimoiylashuv shaxsning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir, u ayniqsa bolalik va o'smirlilik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi, chunki aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bolaning ijtimoiylashuvida, ijtimoiy intizom va tartib, madaniyatning mufassal ko'rinishi bo'lgan jamiyatning muhim o'rni bor. Bugungi kunda shaxsning ijtimoiylashuvi o'ziga xos jarayon sifatida, shaxsning hayoti va faoliyatida o'z aksini topadi. Bolaning mustaqil hayotga qadam qo'yishi, uning ijtimoiylashuvi, shaxsning jamiyat hayotiga, uning ijtimoiy ta'sirlariga moslashishi, uning ijtimoiy voqelikni bilish va anglash faoliyatiga bo'lgan muhim ehtiyoji sifatida paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, bolada yana bir zarur hayotiy ehtiyoj, ya'ni har bir shaxsda o'ziga xoslikni, alohidalikni namoyon etish hissi ham shakllanadi. Bola o'z "Men"ini ro'yobga chiqarish uchun turli usullar va vositalarni qidira boshlaydi va shu orqali uning shaxsiy sifatleri shakllanadi. Shaxsning alohida psixologik, o'ziga xos xislatlari, faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy faoliyatda namoyon bo'ladi, uning i Bolaning shaxs sifatida jamiyatga qo'shilishi, ya'ni ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Ota-ona, o'z tengdoshlari va pedagog-murabbiylar bilan o'zaro muloqot, faoliyat turlari(o'yin va o'quv faoliyati, ijodiy faoliyat, sport faoliyati)ni egallash. Shaxsning ijtimoiylashuvi bolalar, o'smirlar, o'spirinlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida voyaga yetishiga ta'sir esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'lib boradi.

Ijtimoiylashuv jarayoniga tashqi va ichki omillar ta'sir etadi:

Tashqi omillar:

- megaomillar(mega-ulkan) - koinot, butun yer sharidagi jarayonlar.
- makroomillar(makro-katta) - davlat va jamiyatdagi demografik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ekologik omillar.
- mezoomillar(mezo-o'rta) – muayyan hudud va yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari, muayyan guruhlarning ijtimoiylashish shart-sharoitlari.
- mikroomillar(mikro-kichik) – alohida shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar tizimi(oila, mahalla maskanlari, tengdoshlar guruhi, ta'lim va tarbiya muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari).

Ijtimoiylashuv shaxsning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir, u ayniqsa bolalik va o'smirlilik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi, chunki aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga barcha bosqichdagi ta'lim muassasalari, mehribonlik uylari, ixtisoslashgan maxsus maktab-internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi, chunki u yerda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola ta'lim oladi va tarbiyalandi, ijtimoiy normalari, qadriyatli yo'nalishlari ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo'lib yetishadi. Shunday qilib, tor ma'noda ijtimoiylashuv shaxsning ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit normalarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir. Ijtimoiylashuv tushunchasi ma'no jihatdan yaqin bo'lgan "tarbiya" va

“moslashuv” tushunchalari uzviy ravishda bogʻliq. Moslashuv esa ijtimoiylashuv jarayonining muayyan bir tarkibiy qismi, uning harakatga keltiruvchi omili sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik moslashuv yaʼni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga qadam qoʻyishi, ijtimoiy normalarni egallashi, koʻnikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi umumiy ijtimoiylashuvning bir koʻrinishidir. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatdagi ijtimoiy normalarni oʻzlashtiradi, turli rollarni bajarishga oʻrganadi, jamoatchilik sharoitida oʻzini tutish koʻnikmalarini hosil qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi uning ijtimoiy taʼsirlarni qabul qilishi, ijtimoiy borliqni bilishi va anglashiga asoslanadi. Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti – bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va oʻziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, maʼlum tajribaga ega boʻlgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Ijtimoiylashuv sohalari: Shaxsning egallagan mutaxassisligi, olgan bilimlari, koʻnikma va amaliy mehnat malakalari, hayotiy faoliyat uchun juda muhim boʻlib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga taʼsir qiladi, shaxsning kimlar bilan, qanday oʻzaro munosabatda ekanligi, uning qaysi muhit taʼsirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezoni sanaladi. Ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – oʻsha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi oʻzaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati boʻlib, koʻpincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin oʻrganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sogʻlom maʼnaviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol oʻynaydi.

Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning oʻziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi, chunki katta yoshdagi odam nafaqat tashqi taʼsirlarni oʻzlashtiradi, balki oʻzidagi hayotiy tajriba, bilim amaliy koʻnikma va malakalari bilan boshqalarga ham tarbiyaviy taʼsir etadi, shaxsiy oʻrnak koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladi. Shu nuqtai nazaridan, keksalik davrining ijtimoiy mohiyati shundaki, ota-bobolarimiz, onaxonlarimiz asosan oʻzlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va hokazo) uzatish bilan shugʻullanadilar va bu narsa ayniqsa, sharq xalqlarida juda eʼzozlanadi. Hozirgi kundagi ijtimoiylashuv mexanizmlari yoshlarida yangicha tafakkur shakllanishiga, yurtga sadoqat, Vatan hissini shakllantirishga oʻz hissasini qoʻshadi. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli — bu uning hayotda oʻz oʻrnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir.

Etnopsixologiya bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan, yaʼni, uning eng yaqin hamkori boʻlgan fan – bu ijtimoiy psixologiyadir. Ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil boʻladigan tasavvurlar, fikrlar, eʼtiqodlar, gʻoyalar, his-tuygʻular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fan, shaxs va jamiyat oʻzaro bogʻliqligida sodir boʻladigan psixologik hodisalarni tahlil etuvchi ilmiy yoʻnalishdir. Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalariga rioya qilgan holda oʻziga oʻxshash shaxslar bilan oʻrnatadigan murakkab oʻzaro munosabatlari va ularning taʼsirida hosil boʻladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish – ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir. Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos boʻlgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili boʻla oladi. Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti-harakatlarni “aqliy” xususiyatlarga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi. Milliy tilni bilmaslik, etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarning mohiyatlarini anglab olishga toʻsqinlik qiladi. Chunki fikr ifodasi uchun ishlatiladigan soʻzlarda milliy oʻziga xoslik boʻladi. Tafakkur bilan til va nutq oʻzaro bogʻliq

bo'lganligi uchun, ruscha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo'lib o'zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqida, tilda reallashadi, moddiylashadi. Ular o'zbekcha gaplashishga o'rganganlaridan keyin ham, ruscha fikrlab, o'zbekcha gapirishga harakat qiladi. Ruscha tafakkur tarzi bilan o'zbekcha gapirish juda qiyin. Boshqa millat vakili voqelikni o'zbekning ko'zi bilan ko'rib o'zbekona tafakkur tarzi bilan idrok eta olgandagina, u chinakamiga o'zbekcha fikr yuritib, o'zbekcha gapira boshlaydi. Individning ijtimoiylashishi, milliydashishi ona tilini o'zlashtirish bilan boshlanadi. Inson sotsial zot sifatida ma'lum milliy muhitda shakllanib borar ekan, shu sotsial muhitda mavjud bo'lgan munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o'z-o'zidan stixiyali ravishda o'zlashtirmasdan, balki shu jamiyatda qabul qilingan ma'lum ta'lim-tarbiya tizimi orqali, sekin-asta o'zlashtirib boradi. Har bir avlod vakillari ajdodlarining turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o'zlashtirib, millat uchun umumiy bo'lgan shart-sharoitlar ostida o'sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularning barchasida shu millatga xos bo'lgan umumiy psixologik hislatlar shakllanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ijtimoiy informatsiyalarni yosh avlod tomonidan o'zlashtirib borilishi, faqat ongli ravishda, ta'lim-tarbiya berish jarayonidagina bo'lib qolmasdan, shuningdek, individning o'zi bilmagan va o'zlashtirish jarayonini anglab yetmagan holda ham yuz beradi. Bu taqlid va ta'sirlanish orqali amalga oshadi. Individning taraqqiyoti - u bevosita yoki bivosita munosabatga kirishgan boshqa individlarning taraqqiyoti bilan belgilangan bo'ladi va bir-biri bilan munosabatga kirishadigan turli avlod vakillari o'zaro bog'langan, keyingi avlodlarning jismoniy mavjudligi esa o'tmishdoshlari tomonidan belgilangan bo'ladi. Ilg'or fan nomoyondalari insoniyat bu sotsial hodisa ekanligini allaqachon isbotlab berishgan. Shu jumladan konkret bir kishi ham avvalo sotsial munosabatlar mevasidir. Shuning uchun ham hatti-harakatlari mohiyatini biologik yoki irqiy xususiyatlar bilan emas, balki sotsial qonunlar bilan belgilash kerak. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan, shuningdek, doimiy taraqqiy etib turish xarakteriga ega bo'lgan iqtisodiy - ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib turadi. Insonning individual hayotining son-sanoqsiz holatlaridan tashqari, bolaning etnik-madaniy o'ziga xosligining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ijtimoiy muhit va guruhlararo munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadigan bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Eng muhim psixologlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi: 1) ijtimoiy-siyosiy sohadagi global o'zgarishlar va ular bilan bog'liq millatlararo munosabatlardagi o'zgarishlar; 2) etnik muhitning geterogenligi/bir xilligi. Birinchi guruh omillariga kelsak, ijtimoiy sohadagi muhim voqealar butun bir xalqning etnik-madaniy o'ziga xosligini faollashtirishga yordam berishi mumkin.¹

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, etnik identiklik ijtimoiy o'ziga xoslik elementlaridan biri bo'lib, "ko'plab etnik guruhlariga nisbatan ijtimoiy makonda shaxsning o'zini o'zi belgilashining kognitiv-emotsional jarayonining natijasidir". Bu nafaqat xabardorlik, balki o'zining etnik jamoaga mansubligini idrok etish, tushunish, baholashdir. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli — bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

¹ SHAXSDA ETNIK IDENTIKLIKNING SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI. Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna
Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD).
<https://orcid.org/0000-0003-2975-6840>

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. T.2010.
2. Abdullayeva D., Yarqulov R., Atabayeva N. Oila psixologiyasi. T.:”Tafakkur Bo’stoni”. 2015.
3. Shaxsda etnik identiklikning shakllanishida oilaning o‘rni. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 8)
4. “Etnologiya”. Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy. Pod red. A.P Sadoxina. - M., 2000.